

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi*

*Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti*

Pedagogika fakulteti
BTSTI ta'lim yo'nalishi III kurs
1 -guruh talabasi

G'ofurova Maftunaning

ona tili o'qitish metodikasi fanidan

kurs ishi

*Mavzu: “O'qish darslarida hikoya ustida ustida ishlash
usullari (4-sinf “O'qish kitobi” dagi hikoyalar asosida)”*

Ilmiy rahbar: katta o'qit. N. Jo'rayeva

Andijon – 2013

M u n d a r i j a:

Kirish ===== 3

1-§. O'qish darslari — o'quvchi shaxsini tarbiyalashning muhim vositasidir===== 4

2-§. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida badiiy asar matnini tahlil qilish usullari
===== 8

3-§. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilarni hikoya matnini tahlil qilishga o'rgatish ===== 14

4-§. 4-sinfda “Saxiy bog’bon” hikoyasi obrazlarini tahlil qilish ==18

Xulosa ===== 14

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ===== 25

Kirish

Ona tili ta'limi boshlang'ich sinflarda bolalarning nutqini o'stirishga, tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ona tili ta'limiga o'quv fani sifatida emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta'kidlash joizdir. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "... o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi".¹

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslari bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirda ma'naviy-axloqiy tarbiya, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarning ongiga Vatan tushunchasini singdirish, ularning duyoqarashini to'g'ri shakllantirish, yoshlikdan elim deb, yurtim deb yashashga o'rgatish, e'tiqodli, g'ururli bo'lib o'sishlariga zamin yaratish davr talabidir.

Bolalarni qadimiy urf-odatlar, tarixiy, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirish, insonlarga xos eng yaxshi fazilatlarni singdirish kabi goyalar, asosan, ular o'qiydigan asarlarda jamuljam bo'lmog'i lozim.

Ta'lim va tarbiya birligini ta'minlash, bolalarni emin-erkin faoliyat ko'rsatishga undash orqali samarali natijalarga erishish mumkinligi shubhasizdir.

1-§. Bosh'ang'ich sinflar o'qish darslari — o'quvchi shaxsini tarbiyalashning muhim vositasidir.

Maktablarimizdada ta'limning maqsadi o'quvchilarga jahon andozalriga mos bilim va malakalarni singdirishdan iborat bo'lsa, tarbiyaning maqsadi bolalarni hayot bilan tanishtirish (mehnat tufayli odamning baxt-saodatga erishishini, dangasalik, tanballik yomon oqibatlariga olib kelishini tushuntirish) dan iboratdir. "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan deyarli barcha asarlar o'quvchilarni ana shu ruhda tarbiyalashga yordam beradi. "O'qish kitobi" darsliklarida har bir asardan so'ng berilgan savollar, topshiriqlar, maqol va hikmatli so'zlar bolalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ma'nosini uqib, kundalik ishlari, hayotiy faoliyatlarida qo'llashga, ularga rioya qilib ish yuritishga yordam beradi.

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat", 2008, 83-bet.

“Ona yurtim – oltin beshigim”, “Maktabim – kitobim - oftobim”, “Oltin kuz – hosiling yuz”, “Mehnat baxt keltirar”, “Otalar so’zi – aqlning ko’zi”, “Kumush qish – misoli oqqush”, “Qushlar va hayvonlar – bizning do’stimiz”, “ Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” bo’limlarida berilgan asarlar bolalarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirib, soflik va ezgulikka chorlaydi.

O’quvchilarni faqat pand-nasihati bilangina tarbiyalab bo’lmaydi, balki amaliy mashqlar, kundalik turmush tarzi misolida ibratli ishlarga taqlid etishga undash maqsadga muvofiqdir. Maktabda tarbiya surunkali, izchil olib boriladigan jarayondir. Darsda qaysi asar o’qitilmasin, o’quvchilar diqqati ko’proq uning tarbiyaviy tomoniga qaratilishi lozim.

O’quvchilarning xulqini shakllantirish va irodasini tarbiyalashda har bir narsa haqida keltiriladigan misollar ularga ta’sir etishi, ularni hayajonlantirishi, quvontirishi lozim.

O’qish darslarining muhim jihatlaridan biri bolalarni yuksak e’tiqodli, ma’naviy yetuk, mas’uliyatni his eta biladigan inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Bu fazilatlarni yosh avlodga singdirishda o’qituvchining mahorati, ijodiy faoliyati muh’im ahamiyatga ega. Ularda, avvalo, do’stlik, o’rtoqlik, doimo xayrli ishlarni amalga oshirishga intilish hissini uyg’otish bolalarning to’laqonli kamol topishlariga imkon beradi.

O’quvchilarda ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy jihatlarining kamol topishida o’qish darslarining roli katta.

Ma’lumki, ta’lim tarbiya bilan uzviy bog’liq, har bir o’quv mashg’ulotining mazmun-mohiyati ta’limdagi ta’lim-tarbiyaning egiz tushuncha ekanligini e’tirof etadi.

O’qish darslari boshlang’ich sinflarda muhim o’rin tutadi.

Ya’ni bir-biriga bog’liq holda bir necha vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

1. O’qish darslari o’quvchilarda yaxshi o’qish sifatlarini tarkib toptiradi.
2. O’qish darslari o’quvchilarning og’zaki nutqini o’stiradi, ularda nutq madaniyatini shakllantiradi.
3. O’qish darslari o’quvchilarni badiiy asar matni bilan tanishtiradi, badiiy asardan estetik zavqlanish hissini uyg’otadi.
4. O’qish darslari o’quvchilarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

O’qish darslari — o’quvchi shaxsini tarbiyalashning muhim vositasidir.

O’qish darslari bolalarning ongli, to’g’ri, ravon va ta’sirli o’qishlarini ta’minlash bilan birga, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik fazilarlarini tarkib toptirishda, tevarak – atrofdagi voqea – hodisalarga ongli munosabatda bo’lish kabi zarur malakalarni hosil qilishda muhim rol o’ynaydi, o’quvchilarni axloqiy, estetik ruhda tarbiyalashga, nima yaxshi – yu nima yomonligini farqlashga, yaxshi ishlarga ergashish va illatlardan yiroq bo’lishga o’rgatadi, mehnat malakalarini egallab, jamoa hayotida faol ishtirok etishlariga yordam beradi.

O'qish darslarida o'rganiladigan asarlar o'quvchilar qalbida chuqur iz qoldiradi, ularni sevintiradi, iztirobga soladi, o'ylab mushohada yuritishga undaydi.

Birinchi sinf o'quvchilari o'qishning bir necha turlarini, ya'ni, ravon, tez o'qishni, ayni paytda, turli janrdagi matnlarni o'qib, o'rganib olgan bo'ladilar.

Ikkinchi sinf o'quvchilari bilan ana shu malakalarni takomillashtirishga qaratilgan ish tizimi olib boriladi.

Bolalarning o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish malakalarini egallash, badiiy matn ustida ishlash, she'r va kichik matnlarni yod olish, tushunchalarini gapirib berish kabi ish turlarini ko'proq o'tkazish ko'zda tutiladi.

Kitobdagi rasmlar bolalarning his-tuyg'ularini, nutqlarini o'stirishga hamda ularni ijodiy tahlil qilishga mo'ljallangan. O'quvchilar rasmlarni tomosha qilib, tasvirlangan narsa, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradilar, ulardan zavq oladilar, o'zlari ham ijodiy ravishda asar mazmuniga mos rasmlar ishlashga, o'z taassurotlarini ifodalashga o'rganadilar.

Darslikda berilgan har bir matn o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini o'zlarida mujassamlash, asardagi qahramonlarga taqlid qilib, ulardagi eng yaxshi xislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, mehribon va iltifotli bo'lish kabi fazilatlarni o'zlashtirib borishga qaratilgan. Shuningdek, o'qiganlarini mazmunli qilib gapirib berish, fikrini jamlash, uzviylikka e'tibor berishga alohida ahamiyat qilishadi. Shunday qilinganda, matn mazmunini o'zlashtirish ancha oson bo'ladi.

O'qituvchi bolalarni darslikka nisbatan qanday munosabatda bo'lishga, undan ijodiy foydalanishga, mundarijasiga qarab, kerakli asarni tez topa olishga, o'qishga kirishish uchun ruhan tayyorlanish va boshqa shu kabi talablarni bajarishga o'rganadi.

O'quvchilarning o'quv dasturi talablarini o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratish, ularni darsda faol qatnashishga undash, o'zlashtirish sur'atlari va imkoniyatlariga qarab qo'shimcha vazifalar berish, darsning qiziqarli va samarali bo'lishi uchun mos vazifalardan unumli foydalanish, dars jarayonida bolalar jamoasi e'tiborini jalb qilgan holda muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va uning yechimini topish, o'quvchilarning bilim, malakasini baholash, uyga beriladigan vazifalarni me'yorlash, ulardagi zo'riqishlarining oldini olish lozim.

O'qish darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ta'lim va tarbiya maqsadining birligi.
2. Ta'lim va tarbiya vazifalarining birligi.
3. Ta'lim va tarbiya manbalarining uzviy bog'liqligi.
4. Ta'lim va tarbiya metodlarining birligi.

O'qish darsi o'zining mazmuni va mundarijasi jihatidan boshqa darslardan farq qilishi va ta'limda yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak.

Darsni tashkil etishda bolalar e'tiborini qiziqarli misollarga jalb qilish, tasviriy san'at asarlarini maroq bilan tomosha qilishga qaratish, shu yo'sinda asosiy mavzuga o'tish lozim.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda, ko'rgazmali qurollar tayyorlashda o'quvchilarning didini, nafosat tarbiyasini o'stiradigan materiallar tanlashi, uning o'zi esa darsga hamisha yaxshi kayfiyat bilan kirishi, o'quvchilarda ham yaxshi kayfiyat hosil qilishi kerak. Bunday sifatlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun zaruriy odatga aylanishi lozim.

Darsda bolalarga to'la erkinlik berish, o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida samimiy munosabat bo'lishi, ishonch va hurmat tobora ortib borishi kerak.

O'tilgan mavzuni so'rashda ham, yangi mavzuni o'tishda ham bolalar xotirasini mustahkamlovchi omillardan foydalanish, sezgi a'zolarining ishtirokini kuchaytirish, ko'rish va eshitish faoliyatlarini rivojlantirish, ularning faolliklarini ta'kidlab, darsda yanada yaxshi qatnashishga undash lozim.

Mavzuning oson yoki murakkabligiga qarab, dars jarayonida vaziyatni o'zgartirish, muammoli o'qitish usulini keng qo'llash, interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda bolalar tomonidan darsning qanday o'zlashtirilayotganini kuzatib, ularning idrok etish qobiliyatlarini, hissiyotlarini faollashtirish kerak.

2-§. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida badiiy asar matnini tahlil qilish usullari

Ayonki, ta'lim jarayoni tarbiya bilan uzviy bog'liq, har bir o'quv mashg'ulotining mazmun-mohiyati ta'limdagi ta'lim-tarbiyaning egiz tushuncha ekanligini e'tirof etadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy jihatlarning kamol topishida o'qish darslarining roli katta. O'qish darslari boshlang'ich sinflarda muhim o'rin tutadi.

O'qish darslari bolalarni matnni ongli o'qishga, matn mazmunini idrok qilishga o'rgatadi.

O'qishga o'rgatishning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- ☐ bolalarda axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish;
- ☐ bolalarda atrof-muhit, kishilar, tabiat va jamiyat haqida tushuncha berish;
- ☐ nafosat hissini tarbiyalash;
- ☐ mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish;
- ☐ o'quv mashg'ulotlariga, bilim manbai bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish".²

² Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali, Toshkent. "Sharq", 1999-yil, 7-maxsus son, 72-bet.

O'quvchilarni maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab odob-axloq me'yorlari darajasida tarbiyalash o'qituvchilar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi. Chunki o'quvchilarning ma'naviyati yuksak inson bo'lishida maktab asosiy o'rin tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda bilim poydevorini qurish bilan birga, tarbiya jarayoni ham shakllantirib boriladi. Chunki bolani yoshlikdan tarbiyalab borilsa, uning ma'naviyati yuksak, obro'si baland, kelajagi porloq bo'ladi. Shuning uchun o'qishning birinchi kunlaridan boshlab, o'quvchilarga ta'lim berish bilan birga, tarbiya ham berib borilishi eng asosiy vazifa hisoblanadi.

Badiiy asarni o'qish va tahlil qilish o'quvchilarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini, ijobiy yoki salbiy tomondan baholash ko'nikmasini shakllantirishga, shaxs sifatida uning o'sishiga yordam berishi shubhasizdir.

Shunday qilib, sinfda o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati bir-biri bilan uzviy bog'lanadi. Bu hol ta'lim-tarbiya jarayonining birligi haqida to'xtalishga imkon beradi. O'quvchilar berilgan mavzular yuzasidan qanday bilimlarni egallashlari, ularda qanday shaxsiy fazilatlar shakllanishidan qat'i nazar, darsda bu vazifalarni qanday amalga oshirish bilan ham muhim hisoblanadi, ya'ni o'quv jarayonida qanday metodik usullarni qo'llashni, xususan, o'quvchilarning bilish faoliyatini qanday boshqarishni, ularni qanday qilib har tomonlama o'stirishni bilishi zarurdir.

Sinfda o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifasini bir jarayonga birlashtirishning sharti badiiy asar yoki ilmiy-ommabop maqolani idrok etish va tahlil qilish davomida o'quvchilarni asarning ijtimoiy mohiyatini baholay olishga o'rgatish yuzasidan o'qituvchining ko'rsatma berishi hisoblanadi.

O'qituvchi uchun eng muhimi shundan iboratki, bola o'zi oladigan bilim, unda shakllanadigan his-tuyg'u hayotda zarur va ahamiyatli ekanini tushunib yetsin. Bu o'rinda o'qish darslari alohida o'rin tutadi:

Sinfda o'qish darslarining vazifalari:³

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'onishi, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilim olishga o'rganishi, ya'ni kitobni sevuvchi, kitob bilan ishlashni biladigan chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish.
3. O'quvchilarda atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

³ Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1985-yil, 59-bet.

5. O'quvchilar nutqi (asosan, og'zaki nutqi)ni va tafakkurini o'stirish.

6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Har bir vazifani bajarishning aniq yo'li mavjud, ammo bir vazifa boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda o'qish darslari va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

- Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalari takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

- Asarning g'oyaviy – mavzuiy asoslarini, uning obrazlari, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi. Shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashini) ni ta'minlaydi.

- O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

- Sinfdan o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish hamda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

- Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga emotsional ta'siridir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, balki muallif hayajonlangan voqeadan ular ham hayajonlansinlar, loqayd bo'lmasinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr uyg'otish, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan faktlarga to'g'ri uyushtirish uchun to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

O'qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalariga asoslanadi. Sinfdan o'qishni to'g'ri uyushtirish uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonlarining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnni idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Birinchidan, badiiy asar ustida ishlashni tashkil qilishda obrazlar va muallifning asarda tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar.

Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy davrdagi voqealar tasvirlanadi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqealarga tarixiy yondashilgan taqdiridagina matnni to'g'ri o'qish, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati sabablarini tushunish, dalillar va voqealarni haqqoniy baholash mumkin. Buni boshlang'ich sinflarga tatbiq etganda, avvalo, bolalarni asarda

tasvirlangan davr bilan qisqacha tanishtirish, keyin o'quvchilarda qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatini, ular yashagan davrni va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o'stirish tushuniladi.

Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirishi maqsadga muvofiqdir.

Muallif badiiy asarda tasvirlangan hayotiy dalillarga, ijtimoiy hodisalarga, jamiyatning u yoki bu tabaqasi vakillariga o'z munosabatini ifodalashga harakat qiladi. Yozuvchining munosabati, hayotiy materiallarga bahosi aniq dalillar asosida yaratilgan badiiy asarning g'oyaviy mag'zini tashkil etadi.

Asarning g'oyaviy yo'nalishi yozuvchining dunyoqarashiga bog'liq.

To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir, bu asarni to'g'ri idrok etish uchun, matn ustida ishlash ko'nikmasini, o'quvchilarning dunyoqarashini, insoniylik tuyg'usini shakllantirish uchun zarur.

Asarning tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchiga ta'sir kuchi uning g'oyaviy yo'nalishiga bog'liq.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy axloqiy tushunchalaridan foydalanadilar. Bunday axloqiy tushunchalar kichik yoshdagi o'quvchilarda chegaralangan bo'ladi, albatta. Ular axloqiy sifatlardan botirlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, yaxshilik tushunchalarini ko'p ishlatadilar. Qahramonlarning boshqa fazilatlarini tasvirlash uchun ularning so'z boyliklari yetishmaydi. O'qituvchilarning vazifasi asarni o'quvchilar bilan tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsional sifatlarini tasvirlovchi so'zlarni kirita borishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biri hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar personajlarni baholashni o'rganib olgunlariga qadar ularga o'z munosabatlarini asoslashda personajlarning xatti-harakatidan kelib chiqadilar, u harakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar. O'quvchilar qahramonlarning xatti-harakati haqida mamnunlik bilan so'zlab beradilar, ularga munosabat bildiradilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar qiziquvchanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular o'quvchilar hayoti haqida, sayohatlar haqida, hayvonlar va jonivorlar, umuman, tabiat haqida, mashinalar to'g'risida o'qishni, ayniqsa, ertak eshitishni sevadilar. O'quvchilar qo'rqmas sayyohlar, tekshiruvchilar, qahramon bolalar haqidagi kitoblarni yuqori baholaydilar.

Ma'lumki, asarda qatnashuvchi shaxslarning xakteri ularning axloqiy xususiyatlarini anglash asosida tushuniladi; qahramonlarning axloqiy xususiyatlari ustida o'quvchilar bilan maqsadga muvofiq ishlab borish zarur. Kichik yoshdagi o'quvchilarning personajlar xislatlarini anglashlari, asosan, asarda bu xislatlarning qay tarzda tasvirlanishiga bog'liq. Agar muallif asarida qahramonlarning xatti-harakatini tasvirlasa va ularning xislatlari shu xatti-harakatida namoyon bo'lsa, o'quvchilar ularni osonroq tushunib yetadilar.

3-§. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilarni hikoya matnini tahlil qilishga o'rgatish

Boshlang'ich sinflar o'qish darslari tarbiyaning ajoyib quroli sifatida xizmat qiladi, o'qishga, ko'p narsani bilishga havasini orttiradi, o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatishda uni qayta hikoyalashga o'rgatish usulidan foydalanish alohida ahamiyatga ega. "O'qish kitobi"da berilgan matnlar ertak, hikoya, rivoyat, she'r, ilmiy-ommabop asarlar tarzida uchraydi. Ishimizning ushbu bolimida boshlang'ich sinflarda hikoya ustida ishlash mazmuni, usullari, hikoyani qayta hikoya qilishga o'rgatish masalalari to'g'risida fikr yuritiladi.

Hikoya matni ustida ishlashni tashkil qilishda obrazlar va asarda tasvirlangan voqealarga munosabat tahlil markazida turadi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Hikoya ustida ishlashda va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi sinfda o'qish va sinfdan tashqari o'qish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy vazifalariga, hikoyaning o'ziga xos xususiyatlariga va o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda hikoyani idrok etish xususiyatlariga amal qiladi. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotining muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning sh syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So'z ma'nosini

tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi.

Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi.

O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmagan, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, sharoitni, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, ma'lum topshiriq bilan qayta o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzish, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Kichik badiiy hikoyani o'qishga tayyorlanish kabi izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti sxemasi e'tiborga olinadi:

◀ hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyada tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika...);

◀ hikoyani (to'liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchining ifodali o'qishi;

◀ idrok etishni tekshirish (qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);

◀ hikoyani qayta o'qish (hikoyani qismlarga bo'lish, o'quvchilarga o'qitish, ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

◀ hikoyaning har bir bo'limi yuzasidan suhbat o'tkazish va sarlavha topish; hikoya rejasini tuzish;

◀ hikoyaning ayrim bo'limlarini ifodali o'qish;

- ◀ reja asosida qayta hikoyalash;
- ◀ hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);
- ◀ hikoyani ifodali o'qish yoki ifodali qayta hikoyalash.

Bu hikoyani o'qish darsi rejasining varianti bo'lib, o'zgarishi ham mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, badiiy hikoyani o'qish darsida uning mazmunini, asosiy fikrini bilish bilan brga, asarning tarbiyaviy ahamiyati va ta'siri (badiiy asar misolida o'quvchilarni tarbiyalash), xususan, estetik ta'siri ham ko'zda tutiladi va ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi.

Hikoya ustida ishlash badiiy asar ustida ishlashning uch bosqichiga ko'ra amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (birinchi tarkib) – bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig'i bilan tanishtirish, asarning hissiy ta'sirini aniqlashdir.

O'qituvchi hikoyani o'qib beradi hamda uning mazmunini so'zlab beradi, o'quvchilarga hikoya qanday ta'sir qilayotganini aniqlab boradi, savollar berib aniqlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan hikoyalar, yuqorida aytib o'tganimizdek, hajm jihatidan kichkina, mazmuni sodda bolishidan tashqari, rasm va bo'yoqlarga boy bo'lishi kerak.

Ikkinchi bosqichda hikoyadagi syujet rivojining sabab-natija bog'lanishini belgilash; ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvorini va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash; hikoya kompozitsiyasini ochish, hikoyaning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholashdan iborat. Masalan, “Saxiy bog'bon” (4-sinf) hikoyasida tasvirlanayotgan voqealar: Odiljonning gullarni sevib, ardoqlab o'stirganini, uning gullari barq urib ochilgani, keyin Odiljon gullardan uzib qarindoshlari Shohista, Nigora va Nodiralarga sovg'a qilgani, bobosining Odiljonga bergan “bahosi” va boshqa shu kabi voqealarning bir-biriga bog'lanib davom ettirilishi o'quvchilarga tushuntirib boriladi. Keyin esa Odiljon odobi qanday ekanligi aniqlanadi, hikoyada ishtirok etayotgan Odiljonning xulq-atvori, mehnatsevarligi boshqa bolalar bilan bir-biriga qiyoslanadi va baholanadi.

Uchinchi bosqichda esa hikoyada ishtirok etayotgan qahramonlarning muhim xususiyatlari umumlashtiriladi, qahramonlarni taqqoslash va baholash, g'oyaviy yo'nalishini aniqlash kabi ishlar amalga oshiriladi. Hikoya g'oyasidan kelib chiqqan holda, odobli, kamtar, mehnatsevar, halol, kattalarni hurmat qiladigan kishilar hamisha baxtli bo'lishga haqli ekanligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Hikoyadan bahramand bo'lgan har bir bola ota-bobolarimizdan qolgan ulug' fazilatlarga ega bo'lib o'sishi tabiiy. Lekin bolalarni kichik maktab yoshidan boshlab kitobga mehr qo'ydirish muallimlarimizning mas'uliyatli vazifalaridan biridir.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlariday, “... bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga etkazish biz uchun doimo dolzarb

ahamiyat kasb etib kelgan”.⁴ Chunki kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq.

Hikoya matnini tahlil qilishda hikoyani jonli qilib aytib berish muhim jarayon hisoblanadi.

1-, 2-sinflarda o’quvchilarda hikoyalarga qiziqish uyg’otish maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- hikoyalar leksik va sintaktik xususiyatlari saqlangan holda og’zaki hikoya tarzida aytib beriladi va shunday hikoya qilib so’zlab berish talab qilinadi. Chunki hikoya mazmunining o’quvchilarga to’la yetib borishi uchun o’qituvchi yoki o’quvchi uni mustaqil badiiy hikoya qilib berishi kerak.

- hikoya aytib berilgandan so’ng mustaqil o’qitiladi. O’qish jarayonida ayrim so’zlarga izoh beriladi;

- hikoya g’oyasi savol-javob orqali ochiladi;

- hikoya syujeti asosida rasmlar chiziladi;

- hikoya qahramonlarining sifatlari hayotdagi kishilar xarakterlariga, sifatlariga solishtirilib, o’z xulosalarini mustaqil aytishlari o’quvchilardan talab etiladi;

- hikoya mazmuni asosida o’quvchi aqliy faoliyatining rivojlantirilishiga doir mustaqil ish o’tkaziladi.

3-, 4-sinflarda hikoyalarni o’rgatishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- hikoya xususiyatlarini ochish maqsadida suhbat o’tkaziladi. Suhbat davomida mehnatkash xalqning baxtli, ozod va farovon turmush haqidagi orzu-umidlari ifolanganligi aytib o’tiladi. Bunga doir hayotiy misollarni hikoyadan topib aytish o’quvchilardan so’raladi.

- hikoya syujeti asosida rangli rasmlar chiziladi.

- hikoyalarni o’rgatishda barcha boshlang’ich sinflarda ta’lim nazariyasining onglik tamoyiliga to’la amal qilish taqozo etiladi. Shuning uchun ham mustaqil holda o’quvchilarning qiyoslash, solishtirish, to’g’ri xulosa chiqarishlari tashkil etiladi.

4-§. 4-sinfda “Saxiy bog’bon” hikoyasi obrazlarini tahlil qilish

Boshlang’ich sinflarda hikoyalarni o’rgatish mashg’ulotlarida quyidagi ish turlarini bajarish talab etiladi:

1. O’qituvchining kirish suhbat. Bu bosqichda o’qituvchi hikoya muallifi yoki hikoyalar haqida ma’lumot beradi.

⁴ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma’naviyat”, 2008, 55-bet.

2. O'qituvchi hikoyani so'zlab berishi:

Hikoyani o'quvchilar bilan birga o'qishdan oldin ularning hikoyaga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishi lozim, ya'ni hikoyani boshidan qisqagina aytib beradi. Keyin "Bolalar, hikoyaning davomi qanday bo'larkin? Buni bilib olish uchun sizlar bilan uni o'qib chiqamiz" deb, hikoyani o'qishni boshlaydi. O'qib bo'lgandan so'ng esa mazmuni so'zlab beriladi.

3. Hikoya mazmunini mustahkamlash maqsadida savol-javob o'tkaziladi.

Savol-javob o'tkazish hikoya haqidagi tasavvurlarni mustahkamlashning eng samarali usuli hisoblanadi.

Savollarning xilma-xil bo'lishi bola tasavvurining kengayishig, fikrlashining o'sishiga yordam beradi.

4. Hikoyani bo'lib o'qitish.

5. Hikoyani qismlarga bo'lib o'qitish. Hikoyani satrlari bo'yicha bo'lib o'qitish yoki yana ham maydaroq qismlarga bo'lib o'qitish hikoyani yana ham osonroq tushunish imkonini beradi.

6. Hikoyani rollarga bo'lib, badiiy o'qitish. Bu usul yana ham samaraliroq usul hisoblanadi.

O'quvchilar endi hikoya qahramonlariga o'xshab, rollarga kirishib o'qishlari kerak, jiddiy qahramonni jiddiy qiyofada, hikoyaning qahramonlariga aynan o'xshatib badiiy o'qish ularni his-hayajonga soladi, hikoya o'quvchilarning ongida muhrlanib qoladi.

7. Hikoyaning mazmuni asosida reja tuzish, o'quvchilarni reja asosida gapirib berishlariga erishish. Bu usul o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi va bayon hamda insho yozishga tayyorlaydi.

8. O'qituvchining yakuniy suhbat.

9. Hikoyani uyda mustaqil o'qib kelishni vazifa qilib topshirish.

10. Vazifani tekshirish.

Mana shu usullar qo'llanishi natijasida o'quvchilarda hikoyani mustaqil aytib bera olish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi hikoyani o'qitishda obrazlarni (timsollarni) tahlil etib borishi zarur.

Bunda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Asarni o'qish orqali badiiy obraz haqida tasavvur hosil qilinadi.

2. Hikoyadagi obrazlar bir-biri bilan taqqoslanadi.

3. Bir hikoyadagi obrazlar boshqa bir hikoyadagi obrazlar bilan taqqoslanadi.

4. Obrazlar tahlil qilinadi.

5. Qahramonlar surati, yashash sharoitiga doir rasmlar chiziladi.

Hikoyalarni o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, bulardan biri - hikoyalarni o'qitishda bolalarning mehnat qilishga qiziqishini orttirishdir. Ma'lumki, hikoyalar, umuman, badiiy asarlar ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishimiz uchun bebaho xazinadir. Hikoyalarning bolalar ongiga yetib borishida yangi va samarali usullarni qo'llash alohida ahamiyatga ega. Bu usullardan eng samaralisi — hikoyalarni rollarga bo'lib o'qitishdir. Bu usul, asosan, yangi mavzuni mustahkamlash, uyga berilgan vazifani tekshirish bosqichida qo'llansa, yaxshi natija beradi. Buning uchun o'qituvchi har bir obrazni o'quvchilarga bo'lib beradi.

Biz maktabdagi amaliyot o'tkazgan 4-“A”sinfda (sinf o'qituvchisi Sobiraxon Jumayeva) “Saxiy bog'bon” (muallifi Farhod Musajonov) hikoyasini o'quvchilarga rollarga bo'lib o'qitirishni rejalashtirdik.

O'qituvchi muallif rolida, o'quvchilar boshqa rollarga bo'lindilar.

Muallif (bu rolda sinf o'qituvchisi Sobiraxon Jumayeva bo'ldi):

Sohiba, Zuhra, Shavkatbek, Abdurahim, qani, har biringiz bittadan qahramon rolini bajarishga tayyorlaning.

O'quvchilar rolni bajarishga tayyorlanishdi.

Shavkatbek Odiljon; Abdurahim Ertakchi bobo rolini bajarib, ularning gaplarini o'qishdi, keyin esa Zuhra va Sohiba ham yuqoridagi rollarni bajarishdi.

O'quvchilar o'z qahramonlarining gaplarini ravon, ta'sirchan qilib o'qib berishdi.

Bu usul o'quvchilarni hikoya mazmunini, g'oyasini, qahramonlar munosabatini so'zlab berishlarini ta'minladi.

Hikoyadagi syujet voqealarining bog'lanishi quyidagi tartibda belgilab olindi:

1. Odiljonning dadasi gul ko'chati olib keldi.
2. Odiljonning dadasiga savoli.
3. Odiljon gul ko'chatlarini parvarish qildi.
4. Atirgullar barq urib ochildi.
5. Shohistaning tug'ilgan kuni.
6. Odiljonning Shohistaga sovg'asi.
7. Ertakchi boboning Odiljonga bergan bahosi
8. Odiljon mamnun edi.

Hikoya mazmuni tushuntirilgach, qismlar bo'yicha to'rt o'quvchiga o'qitildi. Ongli o'zlashtirish ko'nikmasini nazorat qilish maqsadida quyidagi savollar berildi:

1. Odiljonga dadasi nimani maslahat berdi ?
2. Odiljonning qilgan ishlari haqida so'zlang.
3. Odiljonning qaysi fazilati sizga yoqdi? Nima uchun?

4. Haqiqiy bog'bon qanday bo'lishi kerak ekan?
5. "Saxiy" so'zining ma'nosini tushuntiring.
6. "Gul" o'zagidan yangi so'zlar yasang.
7. Quyidagi maqolning ma'nosini tushuntiring:

Halol mehnat insonni ulug'laydi.

Hikoyani o'qib bo'lgandan so'ng hikoya ustida ishlashning yana bir muhim bosqichini – asar qahramonlarini tavsiflash (ijobiy va salbiy qahramonlarga tavsifnoma berish) usulini qo'lladik.

Avvalo, hikoya qahramonlari doskaga yozib qo'yildi.

Bular:

1. Odiljon.
2. Odiljonning dadasi.
3. Ertakchi bobo.
4. Shohista.
5. Nodira.
6. Nigora.
7. Bu qahramonlar ichida asar markazida turgan obraz – Odiljon.

O'qituvchi: Bolalar, biz Farhod Musajonovning "Saxiy bog'bon" hikoyasi matni bilan tanishib chiqdik. Hammangiz asar qahramonlarining fazilatlarini bilib oldingiz, kelinglar, endi mana shu qahramonlarga bir ta'rif beraylik.

Birinchi bo'lib Odiljonga ta'rif beramiz.

1. Odiljon qanday bola?

— U mehnatkash bola.

— To'g'ri so'z.

— Mehnatsevar.

— Kamtar.

— Maqtanchoq emas.

— Saxiy bola.

— Qo'li ochiq bola.

— Qizg'anchiq emas.

— Maqtanmaydi.

— Maqtanchoqlik – yomon illat, saxiylik – yaxshi odat.

- Saxiylik – yaxshi fazilat.
- Boshqa bola bo'lganida “gulni men o'stirganman” deb maqtangan bo'lardi.
- U bog'ida gul o'stiradi.
- U dadasiga bog' ishlarida yordam beradi.
- Gul o'stirish bolalarning ham vazifasi.
- Gul tabiatning bezagi, u odamlar ko'nglini yashnatadi.

2. Bolalar, siz ham gul yoki ko'chat o'stirasizmi?

- Men ham bu yil gul ekdim.
- Men bog'imizga ko'chat ekdim.
- Prezidentimiz ko'chat ekib, bog' yaratish kerakligini aytdilar. Chunki “Yaxshidan bog' qoladi”, deyishadi.
- Bog' odamlarni to'ydiradi, foyda keltiradi.
- Bog'dagi mevalar inson salomatligi uchun foydali.

3. Bolalar, bu yil qanday yil deb nomlandi? Nima uchunligini o'ylab ko'rdingizmi?

- Bu yil – Obod turmush yili.
- Tadbirkorlik yili.
- 2013-yil – Obod turmush yili.
- Bu yilda odamlar tadbirkorlik qilib o'z xalqiga va o'ziga foyda keltirishi kerak.
- Mamlakatimizni obod qilish kerak.
- Hamma shahar va qishloqlarni obod qilish kerak.
- Xalqimiz tinch va boy bo'lishi kerak.
- Prezidentimizning va xalqimizning maqsadi ham shu.

4. Siz nima bilan bu yilga hissa qo'sha olasiz?

- A'lo o'qishimiz bilan.
- Intizomimiz bilan.
- Mehnatsevar bo'lishimiz bilan.
- Ota-onalarimizga yordam berishimiz bilan.
- Maktabimizning ozoda va pokiza bo'lishiga hissa qo'shishimiz kerak.
- Chunki Prezidentimiz **“Bizdan ozod va obod vatan qolsin”** deganlar.

Bu hikoyani ifodali o'qishga o'rgatish, hikoya mazmunini do'stlariga, ukalariga hikoya qilib berish vazifa qilib berildi.

X u l o s a

O'qish darslarida badiiy asarlarni tahlil qilish o'quvchilarning asar mazmunini to'la anglab yetishlarini ta'minlaydi va o'qish darslaridan kuzatilgan maqsadning amalga oshishiga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish mashg'ulotlarida badiiy asar obrazlari ustida ishlashga qo'yiladigan talablar xilma-xil bo'lib, o'quvchi shaxsini tarbiyalashda bu talablarni bajarish o'qituvchi oldiga juda katta mas'uliyat yuklaydi va ishga ijodiy yondashishni talab qiladi.

Badiiy asar obrazlari tahliliga oid asosiy ko'nikmalar va nutq o'stirish vazifalari o'qituvchidan, o'z ustida ishlash bilan birga, har bir darsda o'quvchilar nutqini doimiy nazorat qilib borishni talab qiladi hamda bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchilarimizdan o'z ishiga mas'uliyat bilan, vijdonan yondashishni talab qiladi.

O'qish darslarida badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning asar mazmunini to'la anglab yetishlari bilan birga, asarning g'oyaviy mazmuni asosida ularning ma'naviy olamini yanada boyitish juda muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat", 2008.
2. Abdullayeva Q., Yusupov M., Mahmudova M., Rahmonbekova S. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi", 2008.
3. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. T., "Sharq", 2003.
4. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1985.
5. Shojalilov A., Toshmatova G., Matjonov S., Sariyev Sh. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi", 2003.
6. Umarova M. Ikkinchi sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. Toshkent. "Ijod dunyosi", 2004.
7. Umarova M., Hakimova Sh. 3-sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008.
8. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Toshkent. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 1998 -yil, 6-son.
9. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligining Axborotnomasi. "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali. Toshkent. "Sharq" nashriyoti, 1999- yil, 7- maxsus son.